

JINOYAT ISHLARINI SURISHTIRUV SHAKLIDA TERGOV QILISH INSTITUTINI TAKOMILLASHTIRISH**¹Abduqahhorov Sarvarbek Abdusamat o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Jinoyat-protsessual huquq kafedrası o'qituvchisi

<https://orcid.org/0000-0001-7989-9116>,**²Ravshanov Savlatbek G'ayrat o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-kurs 321-guruh kursanti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7568679>

So'nggi yillarimizda jinoyat protsessi tizimida ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Shunday islohotlar biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-apreldagi "Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2898-sonli qaroridir. Mazkur normativ hujjat bilan jinoyatlarni tergov qilishni 2 ta shaklda amalga oshirilishi belgilandi. Ya'ni jinoyat ishlarini tergov qilish dastlabki tergov va surishtiruv shaklida amalga oshiriladigan bo'ldi.

Fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiliklarini oldini olish, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun ham jinoyat ishini 3 oylik muddatda tergov qilishning o'rniga uning soddalashtirilgan shaklda tergov qilish surishtiruv faoliyatini tashkil qilishdan bosh maqsad etib belgilandi. Surishtiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar jinoyat protsessual kodeksining 38-moddasida ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra quyidagilar surishtiruvni amalga oshirish vakolatiga ega:

- 1) ichki ishlar organlarining surishtiruvchilari;
- 2) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining va uning joylardagi bo'linmalarining surishtiruvchilari;
- 3) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining va uning joylardagi bo'linmalarining surishtiruvchilari;
- 4) O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining va uning joylardagi bo'linmalarining surishtiruvchilari;
- 5) O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining va uning joylardagi bo'linmalarining surishtiruvchilari.

Jinoyat protsessual kodeksining 381²-moddasidaga muvofiq ichki ishlar organlarining surishtiruvchilari quyidagi moddalar bo'yicha surishtiruvni amalga oshiradilar:

Jinoyat kodeksining 105-moddasi birinchi qismida, 109-moddasida, 110-moddasi birinchi qismida, 111, 112-moddalarida, 113-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 114-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 115-moddasida, 117-moddasi birinchi qismida, 120-moddasida, 121-moddasi birinchi qismida, 125, 125¹, 126-moddalarida, 127-moddasi birinchi qismida, 127¹-moddasi birinchi qismida, 128-moddasi birinchi qismida, 128¹-moddasida, 129-moddasi birinchi qismida, 131-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 133-moddasi birinchi qismida, 136-moddasida, 138-moddasi birinchi qismida, 139, 140-moddalarida, 168-moddasi birinchi qismida, 169-moddasi birinchi qismida, 170-moddasida, 171-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 172-moddasida, 173-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 185 — 185¹-moddalarida, 186²-moddasi birinchi qismida, 216¹-moddasi birinchi qismida, 216²-moddasida, 225-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 226-moddasi birinchi qismida, 227-moddasida, 228-moddasi birinchi va uchinchi qismlarida, 228¹ — 229³-moddalarida,

244⁴-moddasi birinchi qismida (bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish bilan bog'liq jinoyatlardan tashqari), 244⁵-moddasida, 248¹-moddasi birinchi qismida, 255²-moddasi birinchi qismida, 259-moddasi birinchi qismida, 260-moddasi birinchi qismida, 260¹-moddasi birinchi qismida, 261-moddasida, 262-moddasi birinchi qismida, 263¹-moddasi birinchi qismida, 266-moddasi birinchi qismida, 268-moddasi birinchi qismida, 269-moddasi birinchi qismida, 270-moddasi birinchi qismida, 274-moddasi birinchi qismida, 276-moddasi birinchi qismida, 277-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 278-moddasi uchinchi va to'rtinchi qismlarida, 278¹ — 278⁶-moddalarida, 278⁷-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi hamda uning joylardagi bo'linmalari — Jinoyat kodeksining 122, 123-moddalarida, 232-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha surishtiruvni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti hamda uning joylardagi bo'linmalari — Jinoyat kodeksining 177-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 179, 183-moddalarida, 184-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida (bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish bilan bog'liq jinoyatlardan tashqari), 185²-moddasida, 186-moddasi birinchi qismida, 189 — 192-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar yuzasidan surishtiruvni olib boradilar.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi hamda uning joylardagi bo'linmalari — Jinoyat kodeksining 130-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 130¹-moddasida, 184-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 244³-moddasida, 244⁴-moddasi birinchi qismida, 250¹-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha surishtiruvni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi va uning joylardagi bo'linmalari jinoyat kodeksining 250¹-moddasi 1-qismida (bojxona to'g'risidagi qonunchiligini buzish bilan bog'liq jinoyatlardan tashqari) va 259¹-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar bo'yicha surishtiruvni amalga oshiradi [1].

Bugungi kunda surishtiruv faoliyatini amalga oshirayotgan surishtiruvchilarning Jinoyat protsessual kodeksiga muvofiq surishtiruvni amalga oshirish muddati 1 oy qilib belgilangan. Surishtiruv muddatini esa qo'shimcha ravishda 20 kun uzaytirish mumkin. Bu esa ayrim turdagi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyat bo'lishiga qaramay tergov qilish jarayoni ancha murakkab bo'lgan jinoyatlarni tergov qilish uchun kamlik qilayotganligi amaliyotda uchrayotgan muammolardan biridir. O'z navbatida esa surishtiruvning tashkil qilinishidan maqsad tergov muddatini qisqartirishga qaratilgandir. Shuning uchun ham surishtiruvning asosiy muddatini bir oyligicha qoldirib, alohida hollarda tergov qilish jarayoni uzoq muddat talab qiladigan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar bo'yicha surishtiruv muddatini tuman, shahar prokurorining ruxsati bilan qo'shimcha ravishda yana bir oygacha, viloyat prokurorining ruxsati bilan yana bir oygacha uzaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bundan tashqari Jinoyat protsessual kodeksining 379-moddasiga ko'ra dastlabki tergov davomida ayblanuvchi va uning himoyachisini jinoyat ishidagi barcha materiallar bilan tanishtirib bo'lgach, tergovchi, basharti ishni sudga yuborish uchun yetarli asoslar borligi

to'g'risidagi fikri o'zgarmagan bo'lsa, ayblov xulosasi tuzadi. Jinoyat ishi surishtiruv shaklida amalga oshirilganda esa 382¹³-moddaga muvofiq surishtiruvchi ayblanuvchi va himoyachiga ayblov dalolatnomasi tuzilganidan so'ng surishtiruv tamomlanganini e'lon qiladi va ularga ishdagi barcha barcha materiallar bilan tanishib chiqishga doir huquqlarini tushuntiradi va tanishib chiqish uchun ishni tikilgan hamda raqamlangan ko'rinishda, hujjatlarning har bir jildini ro'yxati bilan taqdim etadi. Surishtiruvning ayblov dalolatnomasi bilan tamomlanganidan keyin ayblanuvchi va himoyachiga tanishtirilishi o'z navbatida ayblanuvchi va uning himoyachisi tomonidan iltimosnomalar kiritilgan va ularning iltimosnomalari qondirilgan taqdirda bu haqda yana qaytadan ayblov dalolatnomasiga qayd etish yoki qayd etmaslik masalasi muammoligicha qolmoqda. Fikrimizcha, jinoyat ishi ayblov dalolatnomasi bilan tamomlangan taqdirda ayblov dalolatnomasi nusxasi ayblanuvchiga taqdim etilishini inobatga olib, surishtiruv tamomlangandan keyin dastlabki tergovdagi kabi avval jinoyat ishi materiallari bilan ayblanuvchi va uning himoyachisini tanishtirib, ularning bergan iltimoslari yuzasidan qaror qabul qilish, shundan so'ng ayblov dalolatnomasi tuzish ortiqcha ovoragarchiliklarga chek qo'yishga hamda shaxs huquqlarini yanada yaxshiroq ta'minlanishiga olib keladi.

References:

1. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси // URL: <https://lex.uz/docs/111460> (мурожаат вақти: 20.07.2022).